



BOBORAIM BAXSHI MAMATMURATOVNING "SARVIGUL" DOSTONIDA QO'LLANILGAN SAJ` USULINING QOFIYALARDAGI IZCHILLIGI

Ravshan Baxshi Mamatmuratov

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida katta o'qituvchisi,
"Shuhrat" medali sohibi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17377731>

Annotatsiya

Mazkur maqolada ta'lim jarayonida milliy g'oya va ma'naviy qadriyatlarining o'rnini, ularni yosh avlodga singdirishda ustoz fidoyiligining ahamiyati yoritilgan. Ustozning shaxsiy namunasi, amaliy faoliyati va ma'naviy tarbiya jarayonidagi fidoyiligi asosida milliy qadriyatlarni mustahkamlash yo'llari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, "Sarvigul" dostonining o'quvchi ongiga ta'sirini oshirishda sa'j usulining o'ziga xos o'rnini tahlil qilingan.

Kalit so'zlar

Milliy g'oya, ma'naviy qadriyat, ustoz fidoyiligi, tarbiya, ma'naviyat, o'zbek mutafakkirlari, ta'lim, sa'j'.

Xalqimizning boy va betakror asarlari, xususan, dostonlar bizga insonparvarlik fazilatlaridan saboq beradi. Odil va haqgo'y bo'lishga, o'z yurtimizni, oilamiz qo'rg'onini qo'riqlashga, do'sti-yorimizni, or-nomusimizni, ota-bobolarimizning muqaddas mozorlarini har qanday tajovuzdan himoya qilishga o'rgatadi¹.

Muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev deydi: "Insoniyat yaratgan bebaho madaniyat durdonalari eng avvalo har qaysi millatning folklor san'atida mujassam topgani hammamizga yaxshi ma'lum. Turli xalqlarning milliy o'zligini, ularning tili va hayot tarzini, an'ana va urf-odatlarini ifoda etadigan baxshichilik san'ati umumbashariy madaniyatning uzviy qismi sifatida barchamiz uchun qadrlidir. Mana shunday noyob va buyuk san'at bugungi kunda shunchaki madaniy yodgorlik namunasiga aylanib, ko'p joylarda unutilib ketayotgani, himoya va muhofazaga muhtoj bo'lib turgani-bu ham davrimizning achchiq haqiqatidir. Bu haqiqat ushbu go'zal va betakror san'atning chinakam fidoyilari sifatida siz, azizlarni hammadan ko'ra ko'proq tashvishga solayotganiga ishonaman"². Prezident xalq ijodiyotini, turli o'lkalarda baxshi, jirov, oqin, manaschi, shoir, oshiq kabi nomlar bilan ataladigan, o'z timsolida ham shoirlik, ham sozandalik, ham xonandalik mahoratini mujassam etadigan insonlarning nodir iste'dodini har tomonlama qo'llab-quvvatlash zarurligini ta'kidlaydi. Xalq dostonlari xalq baxshilari tomonidan azaldan kuylanib kelingan va bu dostonlar xalqimizning yuragidan chuqur joy olgan. Baxshilar tomonidan do'mbira kuylarini, terma va dostonlarini eshitar ekansiz butun qalblar junbushga keladi, butun taningiz orom oladi. Dostonlarning nasr qismini oddiy gap bilan fodalansa, tinglovchida zerikish paydo bo'ladi va davrani o'ziga jalb etolmaydi. Dostonlarning nasriy qismlari asosan sa'j usulida qofiyalanishi dostonning voqea tizimiga sayqal berib ohangdorlikni oshiradi, asarni o'qilishida o'quvchini qiziqib mutolaa qilishiga zamin yaratadi. Baxshilar dostonlarni kuylash jarayonida asarning voqea tizimini

¹ O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning "Alpomish" dostonining 1000 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimida so'zlagan nutqi // "O'zbekiston ovozi" gazetasi, 9 noyabr 1999. № 32.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro baxshichilik san'ati festivali ochilishiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. <https://uza.uz/posts/72375>



xalqni jalb qilish maqsadida nasr qismini ham she'riyatga aylantirib muxlislarni o'ziga jalb qiladi. Bu esa baxshining she'riyatga boy ekanligidan dalolat beradi. Asarning she'riy qismi qanchalik qofiyaga tayangan holatda ifodalansa, buni eshitgan xalq baxshiga bo'lgan diqqati shunchalik oshib boraveradi.

Asarda sa'j usulini qo'llashda, asosan, qofiyalarning izchilligiga e'tiborni qaratish lozim. Keltirilayotgan qofiyalar bir-biri bilan bog'liq holatda keltirilsa, izchillik yo'qolmaydi. Fikrimizni O'zbekiston xalq baxshisi Boboraim baxshi Mamatmurodovning "Sarvigul" dostoniga qarataylik. "Qadim o'tgan zamonda, bundan ancha to'banda, kun chiqari tomonda Qanjig'ar degan ovul bor edi". Bu gapda voqeaning ancha avval bo'lib o'tganligini, bundan ancha to'banda gapidagi shevaga xos bo'lgan "to'banda" so'zi bilan izohlanishi va voqelikning Qonjig'ar yurtida bo'lib o'tganligi sa'j usulini boyitib izchillikni ta'minlayapti. Bu jumladagi so'zlarning ma'nosi bir-biriga mos holatda ifodalaniib kelmoqda. "Atrofi keng o'rishli xalqa soy, boqqanlari suruv-suruv qo'y, shul sababdan odamlari anchayin boy edi". Bu gapda xalqning yashayotgan joylari atrofi keng adirlik, daralari ko'p, adirliklarning aylanasi odamlar bemalol enishlari mumkin bo'lgan, ya'ni jarliklari yo'q manzil bo'lganligi, bu joylarda bemalol mol boqsa bo'lishligi, shu sababdan xalqi boy ekanligi haqida ma'lumot berilayapti. Bu jumlada muqayyad qofiyalar qo'llanilgan hamda so'zlarning ma'nosi bir-biri bilan aloqador bo'lib izchillik ta'minlangan.

"Erkaklarini qo'ya turing, ayollari ham saksonga saboq, to'qsonga taboq beradigan kayvoni edi". Bu gapda "saboq", "taboq" so'zlari sa'j usulida qofiyalangan. Izchillik ta'minlangan. Bu bilan muallif erkak kishining ayoli bilimli, mehmon kutishda kayvoni bo'lsa, oiladan ko'ngli to'q bo'lishi, bajarayotgan ishlari o'ng bo'lib borishini ko'zda tutilayabdi.

Har bir savdogarning sarboni yetmish-sakson nor tuyani tortar edi, zap yaxshi molni karvoniga ortar edi". Bu gapda "tortar", "ortar" so'zlari sa'j usulida qofiyalangan bo'lib xalqning savdogarlik bilan shug'ullanishi, savdogarlikda uquvi borligi, xalq uchun kerakli bo'lgan narsalarni yaxshi bilishi va sifatli mahsulotlarni olishi haqida eslatib o'tilayapti. "Azim savdogar bir ketganda necha oylab ketar edi, qancha-qancha mamlakatdan o'tardi, mollarni boshqalardan ancha arzon sotardi. Qanjig'arga qaytishida ko'pchilikka manzur mollarni ortardi, uyiga kelgach ko'rganlarini odamlarga aytardi"³. Bu gapda "ketardi", "o'tardi", "sotardi", "ortardi", "aytardi" so'zlari bir-biri bilan qofiyalangan. Birinchi gapda Azim savdogarning savdogarlik uchun oylab ketishi, ikkinchi gapda savdogarning juda uzoqda joylashgan mamlakatlarga borishi va bu mamlakatga borishi uchun bir necha mamlakatlardan o'tishi nazarda tutilgan. Uchinchi gapda savdogarlikning sir-asrorlarini juda yaxshi bilgan, arzon sotilsa mollarning tez sotilishi va Azim savdogar degan nomi butun dunyoga tanilishini bilgan shaxs. To'rtinchi gapda o'zga yurtlardan qaytishida xalq uchun kerakli bulgan mollarni olib kelishini izohlagan. Chunki Azim savdogar xalq ichida o'sib ulg'aygan inson. Xalqning dardini, ularning kundalik ehtiyojlariga nima kerakligini sezadi. Beshinchi gapda esa savdogarning ma'rifatparvar inson ekanligidan dalolat beradi. Fan-texnika rivojlanmagan bir vaqtlarda bizning Azim savdogardek ota-bobolarimiz yurt oshishib boshqa davlatlarning

³ Sarvigul. Avazxon ota yurtida. Jayxun nashriyoti. 1998 yil.

tuzilishi, xalqi, aholisi, madaniyati, urf-odatlarini haqida ma'lumotlarni o'z xalqiga yetkazib bergan. Bundan ko'rinib turibdiki, Azim savdogar keng fikrli, fahm-farosatli, nutqda esa notiq.

Azim Savdogarning yaqin do'stlaridan birini mo'lla Jo'ra deyar edi, O'zini do'st deb bilsada Azim savdogarning topish-tutishidan ichi kuyar edi, qilgan gunohidan savobi oz edi, lekin sali xotinboz edi, o'zini hammadan ustun qo'yardi, kuniga to'rt-besh kiyimni kiyardi. Matnning birinchi gapida Azim savdogarning do'stining otini Mo'lla Jo'ra deyilishi, ikkinchi gapda do'stining hasadgo'y ekanligi, do'sti bo'la turib do'stining ishbilarmonligidan ichi kuyib yurishi, uchinchi gapda bu insonning hayotda gunohining savobidan ko'p ekanligi, doim insonlarga zarar keltirib yuradigan odam ekanligi, to'rtinchi gapda Mo'lla Jo'raning xotinboz ekanligi va bu fe'li bo'yicha yaqin do'stlarini ham ayamasligi, beshinchi gapda yomon xulqli kishi bo'lishiga qaramasdan o'zini hammadan ustun qo'yishi, kibr-havoga berilgan shaxs ekanligi, oltinchi gapda esa mullaning ayollarga o'chligini, kuniga kiyimlarini besh olti marta almashtirishi bilan izohlanayapti.

Asarning boshlanmasiga nazar tashlar ekanmiz obrazlar xarakterini, ichki va tashqi dunyosini tasvirlashda muallifning sa'j usuli orqali juda ustalik bilan jumalarni munchoq shodalaridek terib joylashtirilganligini his qilamiz.

Mamlakat rahbari hozirgi globallashuv davrida, tijorat vositasiga aylangan "ommaviy madaniyat", shou-biznesning salbiy ta'siri tobora kuchayib borayotgan murakkab zamonda har qanday milliy madaniyatning bulog'i bo'lgan folklor sohasiga e'tibor va qiziqish susayib borayotganini ta'kidladi. "Holbuki, folklor san'ati, ta'bir joiz bo'lsa, - bu insoniyatning bolalik qo'shig'idir"⁴. Shubhasiz, buni mingyilliklar qa'ridagi turkum dostonlarimiz ham ifodalab turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Sarvigul.Avazxon ota yurtida.Jayxun nashriyoti.1998 yil. Muallif. Boboraim baxshi Mamatmurodov.
2. "Boysun bahori" Xalqaro festivalini "Jahon sivilizatsiyasi": "Boysun moddiy va ma'naviy madaniyati" mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi ilmiy maqolalar to'plami.Muallif:Tarix fanlari doktori,professor S.N.Tursunov. Jayxun nashriyoti.2019 yil
- 3.O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning "Alpomish" dostonining 1000 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimida so'zlagan nutqi // "O'zbekiston ovozi" gazetasi, 9 noyabr 1999. № 32.
- 4.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro baxshichilik san'ati festivali ochilishiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. <https://uza.uz/posts/72375>
5. "Folklor san'ati himoya va muhofazaga muhtoj" — president. 2019-yil, 7-aprel, 16:58 Siyosat

⁴ Folklor san'ati himoya va muhofazaga muhtoj — president. 2019-yil, 7-aprel, 16:58 Siyosat